

## “TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI”

**Urazova Nodira Xamidovna**

*Nordik xalqaro universiteti Ta’lim muassasalarini boshqarish  
2-guruhi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta’lim sifatini oshirishda va o’qituvchilarning metodik ta’minotini hsakllantirishda yordam beradigan interfaol metodlar, ushbu metodlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar va ulardan kutilayotgan natijalar haqida bat afsil ma'lumotlar beriladi.

**Kalit So‘Zlar:** *Ta’lim, pedagogika, pedagogika texnologiya, metod, usul, o’qituvchi mahorati, In the box yoxud qutida, Gulbarglar, O’rgimchak to’ri*

### **KIRISH**

Bugun Yangi O’zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimidagi o’zgarishlar haqida to’lqinlanib so’zlamaslikning iloji yo’q. Mamlakatimizda so’nggi yillarda ta’lim tiziminining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

O’qituvchining mahorati va kasbiy madaniyati ta’lim samaradorligini oshirish omili bo’lib bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylanmoqda. Ilm-fan texnika va ishlab chiqarish sohalari jadallik bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda barcha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko’tarish talab etilmoqda

O’tgan yillarimizga nazar tashlab, ularni sarhisob qilsak, mustaqilligimiz sharofatini yanada chuqurroq anglaymiz. Biz ta’limda butunlay yangilanish, yangi jarayonga tom ma’noda o’tish va unga moslashish davrini boshimizdan kechirmoqdamiz. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” bizga eski usullardan voz kechib ta’limning har bir qirrasigacha qayta qurish imkonini bergen bo’lsa, 2023-yildagi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish to’g’risidagi farmon qo’lga kiritilgan imkoniyatlarni: takomillashgan davlat ta’lim standartlari, o’quv dasturlari, davlat talablari, yangi o’quv darsliklarini har tomonlama zamon talablariga mos jihozlangan maktablarda, zamonaviy o’quv xonalarida amaliyotga joriy etish imkoniyatlarni keng ochib berdi.

### **ASOSIY QISM**

Hozirgi paytda pedagogika fanida pedagogik texnologiyalar, metodlar, ta’limiy usullar iboralari tez-tez tilga olinmoqda. Bugungi kungacha pedagogik adabiyotlarda, ta’lim muammolariga oid ma’ruzalar, rasmiy hujjatlarda “yangi pedagogik texnologiya”, “zamovaniy metodlar” ga oid tushunchalari hali ham bir qolipga

tushirilmagan, entsiklapediyalarda izohlanganicha yo'q, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud.

Pedagogik texnologiya – ta'lismetodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi: u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir.

Metod – grekcha metodos so'zidan olingen bo'lib tatbiq qilaman, yo'naltiraman, ilmiy asoslayman degan ma'noni anglatsa, metodika – grekcha so'z bo'lib tushuntirishning yangi yo'lini topaman, qidiraman, izlayman degan ma'noni anglatadi.

Dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan va metodlardan foydalanishdan maqsad, avvalo, dars sifatini oshirish va samarali bo'lishini ta'minlash va o'quvchilarda turli xildagi ta'limga oid kompetensiyalarni shakllantirishdir.

Bugungi kunda respublikamizda sifatli ta'lismi va dars jarayonlarida samaradorlikka erishish maqsadida ta'lismi tizimida xorij tajribalaridan foydalanish va joriy etish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy darsliklar yaratishda ham xorij tajribasidan foydalana boshlandi. Bu kabi tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad esa XXI asr o'quvchisini sifatli ta'lismi olishiga erishish va hayotda o'z o'rnini topishiga yordam berishdan iborat.

Yangilanayotgan ta'limga o'quvchining yuragidagi cho'g'ni alanga oldirish, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimdan-bilimga yetaklab olib chiqish uchun zamonaviy darslar zarurdir. Zamonaviy darslarni tashkil qilish uchun esa har qanday o'qituvchi o'z fanining bilimdoni va kuchli metodist bo'lmog'i lozim. Quyida umumta'lim maktablaridagi o'quv fanlarida noan'anaviy dars jarayonlarini tashkil qilishda yordam beradigan metodlarni tavsiya sifatida bermoqchiman.

1. In the box yoxud qutida metodi – bu metod deyarli barcha o'quv fanlarida dars jarayonlarini sifatli va samarali tashkil qilishda foydalanish uchun qulay metod hisoblanadi.

In the box yoxud qutida metodidan darsning o'tgan mavzuni takrorlash, yangi mavzu bayonini o'quvchilarga tushuntirish va yangi mavzuni mustahkamlash qismlarida hamda dam olish daqiqalari tashkil qilishda foydalanish mumkin.

Metod mazmuni:

Ushbu metoddan foydalanish uchun quti va turli xildagi topshiriqlar yoziladigan kartochkalar kerak bo'ladi. Qutini har bir fan o'qituvchisi o'z fanidan va mavzudan kelib chiqib bezatishi mumkin. Qutining ikki yoni qo'l sig'adigan darajada ochiladi va o'quvchilar qutining mana shu ochiq joyidan topshiriqlarni olishlari mumkin bo'ladi.

Qutiga rus, ingliz, fransuz, nemis va o'zbek tili o'qituvchilari lug'at so'zlarni, tarjima uchun qisqa jumlalar, gaplar va kichik matnlarni ham joylashtirishlari mumkin. Xatto turli predmetlarni, masalan, mevalar, sabzavotlar, turli hayvonlarning shakllarini joylashlari mumkin. Bunda o'quvchilar quti ichiga qo'llarini kirgizadilar, predmetlarni ushlab nima ekanligini va boshqa bir tildagi tarjimasini aytishlari mumkin.


Ona tili va adabiyot, tarix, geografiya, kimyo, biologiya kabi fanlarda quti ichiga mana shu fanga oid nazariy savollar va amaliy topshiriqlar joylash mumkin.

Metoddan kutilayotgan natijalar:

- sifatli dars jarayoni tashkil qilinishiga yordam beradi;
- o'quvchilarning dars jarayoniga qiziqishini ortishiga sabab bo'ladi;
- o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarining shakllanishiga yordam beradi;
- o'quvchilarda fan bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishiga yordam beradi;
- dam olish daqiqalarida foydalanish o'quvchilarga yuqori kayfiyat va xordiq beradi, ularning diqqatini jamlab olishlarida ko'maklashadi.

### In the box

yoxud  
qutida



In the box yoxud qutida metodidan foydalanish uchun tavsiya

Quti ichiga turli Oila mavzusiga oid so'zlar yozilgan kartochkalarni solamiz. Ular quyidagilar:

Oila, ota, ona, aka, uka, singil, opa, hola, tog'a, amaki, jiyan, bobo, buvi kabi.

O'quvchilar navbatma-navbat chiqadilar, qutidan kartochkalarni oladilar, berilgan so'zlarni ingliz tiliga tarjima qiladilar va shu so'z ishtirokida ingliz tilida gap tuzadilar.

2. Gulbarglar metodi – bu metod umumiy o'rta ta'lim mакtablarida o'qitiladigan barcha fanlar va barcha sinflar uchun mos keladigan metod hisoblanadi. Bu metoddan foydalanish uchun o'quvchilar turli xildagi daraxt va gullarning barglarini olib kelishlari lozim. Agar o'quvchilarda burglar bo'lmasa, mакtab bog'iga ekskursiya uyushtirishlari ba burglar terishlari mumkin.

Ushbu metoddan dars jarayonining o'tgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni mustahkamlash qismlarida foydalanish mumkin.

Metod mazmuni:

O'quvchilar olib kelgan gulbarglarini A4 formatdagi oq qog'ozlarga kley yordamida yopishtiradilar. Bu jarayon quyidagi ko'rinishda bo'ladi:



Barglar yopishtirilgandan so'ng, o'quvchilar bugun darsda o'rgangan mavzulariga oid ma'lumotlarni barglarning har bir burchagiga yozib chiqadilar.



Metoddan kutilayotgan natijalar:

- dars jarayoni sifatli tashkil qilinishiga erishiladi;
- barcha o'quvchular darsga jalb qilinadi;
- o'quvchilarda ilmiy bilish ko'nikmasi rivojlantiriladi;
- tabiat bilan aloqa qilishlariga, go'zal tabiat ne'matlarini o'rganishga undaydi;
- integratsiya amalga oshiriladi.

Gulbarglar metodidan foydalanish uchun tavsiya

O'zbekiston tarixi fanida Temuriylar davlati mavzusini tashkil qilishda bu metoddan foydalanish mumkin. O'quvchilar barglarning har bir burchagiga Amir Temur va temuriylar mavzusiga oid o'rgangan va eslarida qolgan ma'lumotlarni yozadilar.

3. O'rgimchak to'ri metodi o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda foydali metodlardan biri hisoblanadi. O'quvchilar metodni bajarish jarayonida ip o'ramidan katta bir o'rgimchak to'rini hosil qiladilar.

"O'rgimchak to'ri" metodining maqsadi:

- nutqiy kompetensiyasi rivojlanadi;
- tadqiqotchilik qobiliyati shakllanadi;
- ilmiy bilish qobiliyati shakllanadi;
- tanqidiy fikrlash ko'nikmasi rivojlanadi.

Metodni o'tkazish tartibi:

10-sinf ona tili

Mavzu: Tabiat va inson

Dastlab, o'quvchilarga metod mazmuni, o'tkazish jarayoni haqida ma'lumot beriladi. O'quvchilar metod va uni amalda bajarish jarayoni haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishgandan so'ng o'qituvchi metodni amaliyotga kiritadi.

O'quvchilar sinf xonasining ochiq joyida katta aylana shaklida turib olishlari lozim.

Topshiriq. Tabiat va inson mavzusi doirasida ma'lumot aytning. Aytilgan ma'lumotlar takrolanmasligi lozim.



O'qituvchi ip o'ramini qo'lida ushlaydi va ipning uchini bir o'quvchiga beradi. Shu o'quvchi ipni qo'liga o'raydi va "Tabiat va inson" mavzusiga oid ma'lumot aytadi. So'ngra o'qituvchi ipni boshqa bir o'uvchiga uzatadi. U o'quvchi ham ipni qo'liga o'raydi va mavzu doirasida ma'lumot aytadi. Shu tariqa oxirgi o'quvchigacha o'yin davom etadi. Metod yakunida o'quvchilar qo'lidagi iplardan o'rgimchak to'ri hosil bo'ladi. Har bir o'quvchi yangi ma'lumot aytishga harakat qiladi, darsdan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan, internet saytlaridan ma'lumotlar qidirib topadi.

Metoddan kutilgan natija:

- o'quvchilar mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlaydilar;
- mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'ladilar;
- o'z fikrlarini og'zaki bayon qilishni o'rghanadilar;
- tanqidiy fikrash ko'nikmasi rivojlanadi;
- hamkorlikda ishslashga o'rghanadilar;
- fikrni xulosalashga o'rghanadilar.

#### XULOSA

Sifatli ta'lif - kelajak poydevoridir. XXI asr o'quvchisiga ta'lif berayotgan o'qituvchilar zamon bilan hamnafas, o'z fanining bilimdoni va kuchli metodist bo'lishi lozim deb hisoblayman. Chunki bugungi internet, kompyuter texnologiyalari, telefon rivojlangan bir zamonda o'quvchilarni an'anaviy darslar bilan o'z darsga, ma'lum bir fanga jalb qilish qiyin bo'lib qolmoqda.

Dars jarayonlarida turli yangidan-yangi metod va usullardan foydalanish o'quv jarayonining turli jihatlarini har tomonlama ko'rib chiqishga yordam beradi. Interfaol metodlardan samarali foydalanish o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzuni mustahkamlash uchun ko'proq imkoniyatlar beradi. Sinfda o'zaro muloqot qilishda

o'qituvchilar o'quvchilarning darajasi va ehtiyojlarini tushunishlari kerak. Misol uchun, agar o'quvchilar bir qator topshiriqlar ustida ishlayotgan bo'lsa, o'qituvchilar ularga maslahatlar berish, sinf muhitini saqlash, aniqlik yoki noaniqlikni oydinlashtirish va har doim motivatsiya qilish kabi tegishli yordam ko'rsatishi kerak. O'qituvchi uchun eng muhim narsa o'quvchilarga o'rganishlariga yordam berish uchun haqiqiy manbalar bilan ta'minlashdir. Bu shuni anglatadiki, sinfda o'qituvchilar emas, balki o'quvchilarning o'zлari ustunlik qiladi. Shunda dars sifati va ta'lim samaradorligi yuqori darajalarga ko'tariladi

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Turg'unov S.T, Daniyarov B.X, Umaraliyeva M.A, Shodmonova Sh.S, Turg'unova Sh.M, Tojiboyeva H.M. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentliligini rivojlantirish. – Toshkent: Sano-standart, 2012-yil.
2. Abdurazzoqova D.“Interfaol metodlar: nazariya, amaliyat, tajriba” Pedagoglar uchun qo'llanma. Toshkent-2013
3. Rasulova Z. (2021). Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quv jarayonlarini rivojlantirishning muhim omili sifatida. fan va Ta'lim. jild. 2, 10-son, 349-359 betlar.
4. Dilova N.G. (2021). O'quvchilarning shaxsiy sifatlari - pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 558-566 betlar.